

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI KENGASHI YIG'ILISHINING  
BAYONI**

**Qarshi shahri**

**7-son**

**2024-yil 29-mart**

**KUN TARTIBI:**

1. "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturidan kelib chiqadigan universitetda amalga oshiriladigan chora-tadbirlari to'g'risida

**Rektor D.Nabiyev**

2. Talaba-yoshlarning tashabbuskorlik va tashkilotchilik faoliyatini oshirish bo'yicha O'zbekiston yoshlar ittifoqi Qarshi davlat universiteti boshlang'ich tashkiloti tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot

**Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor  
O.Qo'ziyev**

**Turli masalalar.**

3. Universitetning vakant (bo'sh) kafedra professori, dotsenti, katta o'qituvchisi, o'qituvchi-assistent lavozimlariga tanlov masalalari

**Kengash kotibi G.Tojiyeva**

4. Universitet professor-o'qituvchilarini OAKga professor, dotsent ilmiy unvoniga tavsiya etish to'g'risida

5. Tadqiqotchilarning dissertatsiya mavzulari va ilmiy rahbarlarini tasdiqlash to'g'risida

6. Mustaqil izlanuvchilarning imtihon natijalari, mavzulari va ilmiy rahbarlarini tasdiqlash to'g'risida

7. Universitetning ilmiy noshirlik faoliyati hamda dissertatsiyalarda ko'chirmachilikni aniqlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor I.Bekpulatov**

8. Universitet professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan va nashr ruxsatnomasiga ega bo'lgan darslik va o'quv qo'llanmalarni universitet hisobidan nashr ettirish to'g'risida

**O'quv ishlari bo'yicha prorektor A.Xolmurodov**

9. Universitet tuzilmasida yangi tashkil etilgan Akademik faoliyat va registrator boshqarmasining Nizomi va lavozim Yo'riqnomasini tasdiqlash to'g'risida

**Akademik faoliyat va registrator boshqarmasi boshlig'i Z.Fayziyev**

10. Tanlovda hamda OAKga taqdim etiladigan unvonlarda ovoz berish jarayonini elektron shaklga o'tkazish to'g'risida

**Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i Z.Xalikov**

11. Professor-o'qituvchilarning monografiyalarini nashrga tavsiya etish

**Kengash kotibi G.Tojiyeva**

Universitet rektori D.Nabiyev Qashqadaryo viloyati hokimiyatiga yig'ilishga ketganligi sababli Kengashni universitet kengashi raisi o'rinbosari, o'quv ishlari bo'yicha prorektor A.Xolmurodov olib bordi. A.Xolmurodov bir

qancha professor-o'qituvchilarning ilmiy unvon va ilmiy daraja olganligi bilan tabriklab, diplom va sovg'alar taqdim etdi.

Shundan so'ng Kengash kun tartibiga kiritilgan masalalar a'zolar tomonidan tasdiqlandi va yig'ilish davom ettirildi.

### **1-masala.**

### **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturidan kelib chiqadigan universitetda amalga oshiriladigan chora-tadbirlari to‘g‘risida**

Ushbu masala yuzasidan ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor I.Bekpulatov axborot berdi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi Qarshi davlat universiteti (QarDU)ning 2024 yilga mo'ljallangan strategik rivojlanish dasturi hisoblanadi. Dastur davlat va idoraviy normativ hujjatlar talablariga muvofiq, shuningdek, «O‘zbekiston — 2030» strategiyasining Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo'nalishi bo'yicha 2024 yilga mo'ljallangan PF 37-son Farmonini hisobga olgan holda quyidagi normativ hujjati asosida ishlab chiqilgan.

Mazkur Farmonda 2024 yil 1 martdan boshlab alohida ishlash talab etiladigan, shuningdek, iste'dodli va iqtidorli yoshlar Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi qarori bilan «Yoshlar balansi» asosida vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar hamda oliy ta'lim tashkilotlari rahbarlariga biriktirilishi ko'rsatib o'tilgan. Bundan tashqari yoshlarning salohiyati, iste'dodi va tashabbuslarini to'laqonli ro'yobga chiqarish maqsadida «Besh tashabbus olimpiadasi» doirada olib borilayotgan ishlarning davom etishi, IT dasturchi yoshlar sonini oshirish vazifalari keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 fevraldagi PF-37-son Farmonidan kelib chiqadigan asosiy vazifalar:

#### **1. Universitetda pedagoglar faoliyati samaradorligini oshirish.**

Ilg'or xorijiy tajriba asosida oliy ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchilarining reytingini yuritish tartibi yuzasidan takliflarni ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish (2024 yil iyun).

Professor-o'qituvchilarni jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim markazlari, ijtimoiy soha tashkilotlari va tijorat kompaniyalariga amaliyot o'tash uchun yuborish, shuningdek, kasbiy malakalarini oshirish uchun yillik ta'tillar berish tizimini joriy etish. Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish.

#### **2. Qo'shma o'quv dasturlari va ilmiy loyihalari doirasida universitetda ishlash uchun etakchi mahalliy va xorijiy professor-o'qituvchilarni faol jalb qilish.**

2024 yilda yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish maqsadida QarDUda universitet imkoniyatlari va buyurtmachilar tomonidan kadrlarga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqqan holda bakalavr ta'lim yo'nalishlarida 5 ta, magistraturada bosqichida 2 ta yangi ta'lim yo'nalishlari ochish rejalashtirilgan.

### **3. Oliy ta'lim muassasalarini dunyoning eng nufuzli «TOP- 1000» oliy ta'lim tashkilotlari reytingiga kiritish.**

2024 yil yakuniga qadar QS (Quacquarelli Symonds World University Rankings), THE (Times Nigher Education) hamda ARWU (Academic Ranking of World Universities) kabi nufuzli xalqaro reytinglarda yuqori 1000 talik o'rinlarga kirish uchun universitetning tegishli ma'lumotlarni to'plash, jumladan, akademik samaradorlik ko'rsatkichlari, tadqiqot natijalari, professor-o'qituvchilar malakasi, talabalar-o'qituvchilar nisbati, xalqaro hamkorlik, so'rovlari va to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish. Reyting natijalari tahlil qilgan holda, joriy yil yakuniga qadar tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish, ma'lumotlarining aniqligi, izchilligi va ishonchliligini ta'minlash. Buning uchun xalqaro reyting bazalari KPI ko'rsatkichlarini aniqlash va mazkur ko'rsatkichlar bo'yicha natijalarni yaxshilash (xalqaro bazalardagi maqolalar sonini oshirish, ilmiy ishlanmalardan kelayotgan mablag'larni ko'paytirish, xalqaro talabalarsoni oshirish va h.k.).

Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities kabi xalqaro reyting agentliklarining hududiy ekspertlari tomonidan 2024 yil yakuniga qadar respublika oliy ta'lim tashkilotlari reyting ko'rsatkichlarini yaxshilash, ishni tizimli yo'lga qo'yish va tizimdagi umumiy tushunchalar, metodologiyalar, tendensiyalarga oid tushunchalar va turli institutlarning qiyosiy tahlillari bo'yicha onlayn zoom orqali seminar-trening tashkil etish. Seminar-trening mashg'ulotlarida universitetning xalqaro reytinglar bo'yicha mutaxassisi, xalqaro bo'limi, ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'limi xodimlari va yuqori salohiyatli professor-o'qituvchilar ishtirokini ta'minlash.

### **4. Oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish.**

Qarshi davlat universiteti "Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili" ta'lim dasturini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish bo'yicha xalqaro akkreditatsiya agentligi bilan shartnoma tuzish va mazkur yilda 1 ta ta'lim dasturini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish.

Qarshi davlat universitetida o'tkazilgan xalqaro akkreditatsiya natijalari bo'yicha va to'plangan malaka talablariga tayangan holatda akkreditatsiya jarayonlarini to'liq qamrab olgan (ta'lim dasturini xalqaro ta'lim talablariga moslashtirish, xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari bilan shartnoma imzolash, tashkilotga Vazirlik tomonidan qo'yilgan talablarga mosligini tekshirish, o'z-o'zini baholash hisobotini shakillantirish, akkreditatsiya tashkilotidan keluvchilar uchun xodimlarni yuzma-yuz uchrashuvlarga tayyorlash va h.k.)

qo'llanma yozish va mazkur qo'llanmani universitetning barcha kafedralariga targ'ib qilish.

#### **5. «Top-500»ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturi asosida kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish.**

Dunyo reytinglarida kuchli TOP-500 talik ro'yxatga kiriuvchi oliy ta'lim muassasalari bilan tuziladigan shartnomalar sonini oshirish va shu bilan birgalikda universitetning xalqaro reyting bazalariga kirish imkoniyatlarini yaxshilash. Har bir kuchli TOP-500 talik ro'yxatga kiriuvchi oliy ta'lim muassasalari bilan olib boriladigan aloqalarni mustahkamlash (qo'shma dasturlar ochish, qo'shma ilmiy loyihalar topshirish, hamkorlikda yuqori impakt faktorli Scopus va Web of science bazasidagi jurnallarda maqolalar chop qilish).

Qarshi davlat universitetida ikki diplom dastur asosida kadrlarni tayyorlashni yo'lga qo'yish maqsadida 2024 yilda TOP-1000 talik OTMlardan Qozon Federal universiteti bilan 11 ta ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha (kunduzgi, 3+1, 1+1 shaklida) qo'shma ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan. Hozirgi vaqtda xorijiy OTMlar bilan yozma kelishuvlar olib borilmoqda.

1. 01.03.02 – Amaliy matematika i informatika (bakalavriat);
2. 02.03.01 - Matematika va kompyuter ilmlari. (bakalavriat);
3. 38.03.01 – Iqtisodiyot. Korxonalar va tashkilotlar iqtisodiyoti (bakalavriat);
4. 38.03.01- Iqtisodiyot. Jahon iqtisodiyoti (bakalavriat);
5. 43.03.02 – Turizm. Xalqaro turizm (bakalavriat);
6. 45.03.01 - Filologiya. Xorijiy filologiya ingliz tili va adabiyoti, tarjimashunoslik(bakalavriat);
7. 45.03.02 – Lingvistika. Rus tili xorijiy til sifatida (bakalavriat);
8. 43.04.02 – Turizm. Xalqaro turizm (magistratura);
9. 45.04.01 - Filologiya. Rus tili xorijiy til sifatida (magistratura).
10. 45.04.02 - Lingvistika. Xorijiy tillar va madaniyatlarini metodikasi (magistratura).

TOP-1000talik OTMlar bilan qo'shma ta'lim dasturlari tashkil etishdan maqsad - kadrlar tayyorlashning sifatini oshirish, bakalavriat bosqichini tugatgan bitiruvchilarini magistratura bosqichiga tavsiya etish, Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy, ta'lim-tarbiya sohalarini salohiyatli, raqobatbardosh kadrlar tayyorlab berish hisoblanadi. O'quv jarayoniga Qozon Federal universiteti hamda Qarshi davlat universitetlarining 50 dan ortiq salohiyatli professor-o'qituvchilari jalb etiladi.

Hozirgi vaqtda qo'shma dastur asosida 4 magistratura (lingvistika: rus tili, lingvistika: ingliz tili, tarix) va 6 bakalavriat (davolash ishi, pediatriya, rus tili, ingliz tili, amaliy matematika, tasviriy san'at va muhandislik grafikasi) ta'lim yo'nalishi mavjud bo'lib, 2024-2025 o'quv yilida Qozon Federal universiteti bilan hamkorlikda 5 ta yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga (Amaliy matematika i informatika, Matematika va kompyuter ilmlari, Iqtisodiyot. Korxonalar va tashkilotlar iqtisodiyoti, Iqtisodiyot. Jahon iqtisodiyoti,

Turizm. Xalqaro turizm) , abituriyentlar hamda yangi turizm bo'yicha magistratura mutaxassisligiga bakalavrlar qabul qilinadi.

2024 yil aprel oyidan boshlab yangi o'quv yili uchun qo'shma dasturlarni amalga oshirish maqsadida qo'shma o'quv rejalar hamda qo'shma dasturlarni amalga oshirish bo'yicha shartnomalar ustida ish olib borilmoqda.

#### **6. Talabalarga qulay shart-sharoitlar yaratish uchun oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash.**

Qarshi davlat universitetda talabalar turar joylariga ehtiyojmand talablar to'liq yotoqxonalar bilan qamrab olganligini inobatga olib qo'shimcha talabalar turar joylarining qurilishiga ehtiyoj yo'q.

Dunyoda tan olingan ilmiy maktablar bilan hamkorlikda matematika, biologiya, kimyo, geologiya, fizika, epidemiologiya, seysmologiya, bioxilma-xillik kabi yo'nalishlarda fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish uchun kompleks ilmiy dasturlarni amalga oshirish.

Universitetda fundamental loyihalarni ko'paytirish maqsadida kafedradagi ilmiy maktablar (ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari) faoliyati yanada takomillashtiriladi va yangi jihoz, kurilma va butlovchi qismlar bilan ta'minlanadi. Bundan tashqari xalqaro ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, universitetlardagi ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari bilan hamkorlik yo'lga qo'yiladi. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va boshqa tashkilotlar tomonidan e'lon qilinadigan fundamental tadqiqotlar tanloviga loyiha

#### **8. Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish loyihalari asosida ilmiy tashkilotlar va tadbirkorlik subyektlari o'rasida shartnomalar imzolash.**

Universitet professor-o'qituvchilari tomonidan yaratilgan ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish. Hududdagi ishlab chiqaruvchi korxonalar, zavod va xususiy tadbirkorlarda mavjud muammolar bazasini shakllantirish. Universitet professor-o'qituvchilariga mazkur muammolarni yetkazish va yechilgan muammoni moliyalashtirish imkoniyatlarini aniqlash.

#### **9. Oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar uchun ajratiladigan oliy ta'limdan keyingi ta'lim kvotalari sonini bosqichma-bosqich oshirib borish.**

Universitet kafedralaridagi ilmiy salohiyatni va kadrlarga bo'lgan

alqaro sertifikatga ega shaxslar ishtirok etishi tartibi joriy etilgan bo'lib nofilologik yo'nalishlar uchun B2 sertifikat talab etilmoqda. Bunda, doktorantura va magistraturaga topshiruvchi talabgorlar uchun qiyinchiliklar tug'dirib, kvotalar bo'sh qolib ketmoqda. Buning uchun filologiya yo'nalishlari bo'yicha kamida S1 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat, nofilologik yo'nalishlari bo'yicha esa V1 darajadagi milliy yoki unga

#### **10. Xorijiy tashkilotlarga qisqa muddatli stajirovkalarga yuboriladigan yosh tadqiqotchilarning ulushini oshirish.**

Qarshi davlat universiteti "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 6-bandi ijrosini ta'minlash bo'yicha bir qator ishlarni amalga oshirdi. Jumladan, Turkiya, Ispaniya, Qozog'iston, Slovakiya, Xitoy, AQSH, Ozarbayjon kabi davlatlarning OTM va ITI lari bilan muzokaralar olib borish va bir nechta xorijiy OTMlar bilan memorandumlar imzolash.

Qarshi davlat universiteti 2024 yil qisqa muddatli stajirovkalarga yuborish tanlovini 2023 yil sentabr-noyabr oylarida e'lon qildi va dekabr-yanvar oylarida professor-o'qituvchilarning xorijiy OTM ga stajirovkaga borishdan maqsadi, bajariladigan vazifalar hamda kutilayotgan natijalar mezonlari bo'yicha 92 nafar professor-o'qituvchi saralab olindi. 2024 yilda reja bo'yicha saralangan professor-o'qituvchilarni bosqichma-bosqich stajirovkalarga yuborish choralari ko'rish.

Professor-o'qituvchilar xorijiy stajirovka davomida hamkor OTM dagi mavjud o'quv darsliklari bilan tanishishi, ta'limda yangi metodikalar va ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirishi hamda qaytgandan so'ng o'z darslarida tatbiq etishi, xalqaro hamkorlikni yanada mustahkamlashi, o'quv va ilmiy loyihalarida o'tkaziladigan ilmiy tadqiqotlar bilan tanishishi, xalqaro loyihalarda ishtirok etish bo'yicha bilim-ko'nikmalarga ega bo'lishi kabi natijalar kutilmoqda.

**11. «Bir million dasturchi» loyihasini amalga oshirish orqali iqtidorli yoshlarni nufuzli xalqaro kompaniyalar talablariga mos dasturlar asosida tayyorlash.**

Qarshi davlat universiteti Inkubatsiya markazida va Matematika va kompyuter ilmlari fakultetida talabalarni dasturlash va kompyuter bilimlari kurslarini tashkil qilish. Mazkur kurslarda faoliyat olib borayotgan talabalarning xalqaro IT sertifikatlarini o'qib olishlari uchun sharoit yaratish. Inkubatsiya markazida iqtidorli talabalar ishtirokida IT tanlovlarida ishtirok etishni va yangi startap loyihalar topshirishni ta'minlash.

**12. Yoshlarni ommaviy sport tadbirlariga jalb qilish.**

Universitet talabalari uchun sportning futbol, mini futbol, voleybol, yengil atletika, stol tennisi, kurash, dzyudo to'garaklari faoliyatini tizimli yo'lga qo'yish.

Universitetda sportning futbol, voleybol, basketbol, stol tennisi, shaxmat va shashka turlari bo'yicha "Rektor kubogi" musobaqalarini tashkil etish.

Respublika oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida o'tkaziladigan "Talabalar ligasi" sport musobaqalarida universitet jamoasining ishtirokini ta'minlash.

Buyuk Sohibqiron Amir Temur tavalludi kuni munosabati bilan sportning Kurash turi bo'yicha universitet birinchiligini o'tkazish.

Oliy Harbiy aviatsiya bilim yurti va universitet talabalari o'rtasida futbol bo'yicha o'rtoqlik uchrashuvi tashkil etish.

Barcha talaba yoshlar o'rtasida "Universitetga 5000 qadam" sog'lomlashtirish aksiyasini o'tkazish

Fakultetlar talabalari o'rtasida "Quvnoq startlar" musobaqalarini o'tkazish.

### **13. O'zbek milliy san'atini jahon sahnalarida keng targ'ib qilish orqali mamlakatimizning turistik salohiyatini oshirish.**

Universitetning "Qaqnus" talabalar teatr studiyasi ishtirokida teatr tomoshalari faoliyatini yo'lga qo'yish.

Universitetda tahsil olayotgan iqtidorli rassom talabalarning ijodiy ishlari ko'rgazmasini tashkil etish.

Talabalar orkestri jamoasining konsert dasturini namoyish etish.

Universitet talaba-qizlari o'rtasida "Milliy liboslar ko'rgazmasi" tadbirini o'tkazish.

Universitetga yondosh hududda joylashgan mahallalar fuqarolari uchun universitet talabalarining "Maqom" ansambli konsert dasturini namoyish qilish.

Universitet talabalarining ijod mahsuli asosida yaratilgan mahsulotlar ko'rgazmasini tashkil etish.

Universitet Kengashi ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor I.Bekpulatovning universitetda «O'zbekiston — 2030» strategiyasini «Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturidan kelib chiqadigan universitetda amalga oshiriladigan chora-tadbirlari to'g'risidagi axborotini tinglab

#### **QAROR QILADI:**

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor I.Bekpulatovning universitetda «O'zbekiston — 2030» strategiyasini «Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturidan kelib chiqadigan universitetda amalga oshiriladigan chora-tadbirlari to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Barcha prorektorlar, dekanlar, kafedra mudirlariga ushbu strategiyada belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash va o'z vaqtida bajarish vazifasi yuklatilsin.

3. Ushbu Kengash qarori ijrosini nazorat qilish Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor O. Kuziyev, O'quv ishlari bo'yicha prorektor A.Xolmurodov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor I.Bekpulatov, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor X.Djurayevlar zimmasiga yuklatilsin.

**2-masala.**

**Talaba-yoshlarning tashabbuskorlik va tashkilotchilik faoliyatini oshirish bo'yicha O'zbekiston yoshlar ittifoqi Qarshi davlat universiteti boshlang'ich tashkiloti tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot**

Ushbu masala yuzasidan Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor O.Qo'ziyev axboroti tinglandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, **Kengash**

**QAROR QILADI:**

1. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor O. Kuziyevning talaba-yoshlarning tashabbuskorlik va tashkilotchilik faoliyatini oshirish bo'yicha O'zbekiston yoshlar ittifoqi Qarshi davlat universiteti boshlang'ich tashkilot yetakchisi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston yoshlar ittifoqi Qarshi davlat universiteti boshlang'ich tashkilot yetakchisi D. Ravshanovning faoliyati qoniqarli deb hisoblansin.

3. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor O.Kuziyev, fakultet dekanlari, barcha tyutorlar va boshlang'ich tashkilot yetakchisi D. Ravshanovga:

- talaba-yoshlarning tashabbuskorlik va tashkilotchilik faoliyatlarini oshirish, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni tashkil qilish va ularning xohish va istaklarini o'rganib borish maqsadida muntazam so'rovnomalar o'tkazib borish;

- universitet, fakultetlar va TTJlari miqyosida o'tkaziladigan tadbirlarning manzilli chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- talabalarning xohish va istaklaridan kelib chiqqan holda guruhlar, yo'nalishlar va fakultetlar o'rtasida besh muhim tashabbus doirasida Zakovat, Quvnoqlar va zukkolar, Zukko kitobxon, Munozara tanlovlari, sport musobaqalari, konsert va boshqa ko'ngilochar tadbirlar tashkil etish samaradorligini oshirish;

- tashabbuskor, intiluvchan, alohida iqtidorga ega va tadbirlarda faollik ko'rsatayotgan talabalarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirib borish bo'yicha rahbariyatga takliflar kiritib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Ushbu Kengash qarori ijrosini nazorat qilish Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor O. Kuziyev zimmasiga yuklatilsin.

**Turli masalalarda 3,4,5,6,7,8,9,10,11 masalalar ham ko'rib o'tildi.**

**Kengash raisi:**

**D.Nabiyev**

**Kengash kotibi:**

**G.Tojiyeva**

